



## SH.MIRZIYOYEV TOMONIDAN ILGARI SURILGAN 2017-2021 HARAKATLAR STRATEGIYASI NATIJALARI

**Xudaybergenova Nigora Turganbayevna**

*ilmiy rahbari*

*PhD, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

**Shodiyev Jasurbek Jurabekovich**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Soliqlar va budjet hisobi” fakulteti 1-bosqich talabasi*

[jasurbek788900@gmail.com](mailto:jasurbek788900@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur mavzu Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan 2017–2021-yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasining mazmuni va natijalarini yoritadi. Unda davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, ijtimoiy soha hamda qonun ustuvorligini ta’minlash borasida amalga oshirilgan islohotlar tahlil qilinadi. Strategiya natijasida mamlakat taraqqiyoti va aholi farovonligini oshirishga xizmat qilgan muhim o‘zgarishlar amalga oshirilgani ko‘rsatib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** Harakatlar strategiyasi, 2017–2021, O‘zbekiston Respublikasi, islohotlar, davlat boshqaruvi, sud-huquq tizimi, iqtisodiy liberallashtirish, investitsiya muhiti, ijtimoiy soha, ta’lim va sog‘liqni saqlash, tashqi siyosat, modernizatsiya, barqaror rivojlanish.

### KIRISH

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017—2021 yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakat strategiyasi haqidagi farmonni imzoladi. Strategiya loyihasi dolzarb hamda aholi va tadbirkorlarni tashvishga solayotgan masalalarni kompleks o‘rganish, qonunchilik, huquqni muhofaza qilish amaliyoti va xorijiy tajribani tahlil qilish yakunlari bo‘yicha ishlab chiqilgan. Harakatlar strategiyasi 5 bosqichda amalga oshirilib, ularning har biri bo‘yicha yil nomlanishidan kelib chiqqan holda alohida bir yillik davlat dasturini tasdiqlashni nazarda tutadi. Xususan, 2017 yil — «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili» deb e’lon qilindi. 2017-yil imzolangan farmonda davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning 5ta ustuvor yo‘nalishi keltirilgan:

- Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari;
- Qonun ustuvorligini ta’minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish;
- Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish;
- Ijtimoiy sohani rivojlantirish;
- Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash hamda chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar.

**1. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish**

1.1. Davlat tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari:

• Davlat hokimiyati tizimida Oliy Majlisning rolini oshirish, uning mamlakat ichkiva tashqi siyosatiga oid muhim vazifalarni hal etish hamda ijro hokimiyati faoliyatiustidan parlament nazoratini amalga oshirish bo'yicha vakolatlarini yanada kengaytirish;

• Qonun ijodkorligi faoliyatining sifatini qabul qilinayotgan qonunlarni amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va sud-huquq isloxotlari jarayoniga ta'sirini kuchaytirishga yo'naltirgan holda tubdan oshirish;

• Siyosiy tizimni rivojlantirish, davlat va jamiyat hayotida siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish, ular o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish;

#### 1.2. Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish;

• Hukumatning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-gumanitar, hududiy rivojlanish, shuningdek tashqi-siyosiy va tashqi-iqtisodiy sohalaridagi vakolatlarini, uning a'zolari javobgarligi chegaralari aniq belgilandi;

• Ijro hokimiyati organlari faoliyatini optimallashtirish va takomillashtirish bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda;

• Yoqilg'i-energetika sohasi va sanoatning bazaviy tarmoqlarini rivojlantirish masalalari hamda agrar va oziq-ovqat sohalarini rivojlantirish masalalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining maslahatchisi lavozimi joriy qilindi

• O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari muammolarni uyma-uy yurish orqali aniqlash va hal qilishning faol tizimiga o'tdi. Ularning hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha sektorlar bilan o'zaro hamkorligi kuchaytirildi.

#### 2. Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish

Davlat dasturining ikkinchi yo'nalishi qonun ustuvorligini va sudning chinakam mustaqilligini ta'minlash chora-tadbirlarini nazarda tutadi:

- Qarorlar qabul qilishda sudlar mustaqilligini ta'minlashi kerak bo'lgan Oliy sud kengashini tuzish, professional sudylar korpusini shakllantirish, sudyalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish rejalashtirilmoqda.
- Ma'muriy sudlarni, xo'jalik sudlari tizimida mintaqaviy apellatsiya sudlarini tuzish, sudya yordamchisi lavozimini ta'sis etish orqali sudlarni kelgusida ixtisoslashtirish va ularning devonini mustahkamlash nazarda tutilmoqda.
- Huquqbuzarliklarning oldini olish tizimiga, jinoyatchilikka qarshi kurashish va jamoat tartibini saqlash bo'yicha ichki ishlar organlarining faoliyatini tubdan takomillashtirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Shuningdek, ushbu yo'nalish 2018-2021-yillarda jinoyat va jinoyat-protsessual qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish konsepsiyasini ishlab chiqishni, sud, huquqni muhofaza qilish va nazorat organlari xodimlarini o'qitish, tanlash va joy-joyiga qo'yish tizimini takomillashtirishni, murojaatlarni muntazam tahlil qilishni hamda vaqti-vaqti bilan uning

natijalarini e'lon qilib borishni, advokaturani rivojlantirishni, notariat tizimini va FHDYo organlarini isloh qilishni ham o'z ichiga oladi.

### **3. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish;**

“Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish” deb nomlangan uchinchi yo‘nalishda ko‘rsatilgan chora-tadbirlarni ro‘yobga chiqarish uchun milliy valyuta va narxlarning barqarorligini ta‘minlash, valyutani tartibga solishning zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish, mahalliy byudjetlarning daromad bazasini kengaytirish, tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, eksportga mo‘ljallangan mahsulot va materiallar ishlab chiqarish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, transport-logistika infratuzilmasini, tadbirkorlikni rivojlantirish hamda xorijiy investorlar uchun investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish, soliq ma‘murchiligini yaxshilash, bank faoliyatini tartibga solishning zamonaviy prinsiplari va mexanizmlarini joriy etish, ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish, shuningdek turizm industriyasini jadal rivojlantirish nazarda tutiladi.

### **4. Ijtimoiy sohani rivojlantirish;**

Ijtimoiy sohani rivojlantirish yo‘nalishi bo‘yicha aholi bandligi va real daromadlarini uzluksiz oshirib borish, ijtimoiy himoya va sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish, arzon uy-joylar barpo etish, ta‘lim, madaniyat, ilm-fan, san‘at va sport sohalarini zamon talabi darajasida yuksaltirish uchun katta resurslar yo‘naltirilmoqda.


Xususan, hududlarni har tomonlama rivojlantirish bo‘yicha qariyb 25 mingta investitsiya loyihasini ro‘yobga chiqarish hisobiga 256,4 ming ish o‘rni tashkil etish orqali aholini ish bilan ta‘minlash dasturlarini to‘liq ijro etish nazarda tutilgan. Ishsizlik darajasi eng yuqori bo‘lgan mintaqalarda 46,8 ming yangi ish o‘rni tashkil etish, tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun ta‘lim muassasalarining 10 ming nafar bitiruvchisiga kreditlar ajratish rejalashtirilgan.

Qishloq joylarda 15 mingta arzon uy-joy, 415 kilometrlik suv ta‘minoti quvurlari, 316 kilometrlik gaz ta‘minoti quvurlari va 291 kilometrlik ichki yo‘llar qurish rejalashtirilgan. Aholiga transport xizmatlari ko‘rsatish sifatini yaxshilash maqsadida 86 ta yangi avtobus yo‘nalishini joriy etish va 537 ta zamonaviy avtobus xarid qilish nazarda tutilgan.

### **5. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash hamda chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar.**

Millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik ta‘minlanmoqda, o‘zaro manfaatli tashqi siyosat yuritilmoqda, ahil qo‘shnichilik muhiti yuzaga kelib, shaxs erkinligiga intilish bo‘yicha O‘zbekistonning xalqaro nufuzi mustahkamlanmoqda.

- O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligini muhofaza qilish;
- axborot xavfsizligini ta‘minlash va axborotni himoya qilish tizimini takomillashtirish, axborot sohasidagi tahdidlarga o‘z vaqtida va munosib qarshilik ko‘rsatish;
- fuqarolik, millatlararo va konfessiyalararo tinchlik hamda totuvlikni mustahkamlash;
- davlatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining jangovar qudrati va salohiyatini oshirish;

- 
- atrof-tabiiy muhit, aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan ekologik muammolarni oldini olish;
  - favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etish tizimini takomillashtirish.

**Xulosa. 2017–2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasi** O'zbekistonda davlat boshqaruvi, iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarni modernizatsiya qilishga xizmat qildi. Ushbu davrda boshqaruv tizimi takomillashtirildi, iqtisodiyot liberallashtirildi hamda ijtimoiy sohada aholi farovonligini oshirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirildi. Natijada mamlakatda barqaror rivojlanish va islohotlar samaradorligi sezilarli darajada oshdi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mirziyoyev Sh. M. Qonun ustuvorligi va inson ma'nfaatlarini ta'minlash –yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 30 yiliga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasi. - Toshkent: O'zbekiston. 2022.

2. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: O'zbekiston. 2017.

3. O'zbekiston tarixi G' R. H. Murtazayeva umumiy tahriri ostida. – T. :Yangi asr avlodi, 2005.

4. Karimov I.A., Mirziyoyev Sh.M. – O'zbekiston taraqqiyotiga oid ma'ruza va chiqishlar to'plami (tanlab o'rganish uchun).

5. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi (LEX.UZ).

6. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bo'yicha yillik hisobotlar (Stat.uz).